

5 – AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: MASHINALARNING YILLIK ISH REJIMINI HISOBLASH

Ishning maqsadi: Qishloq xo'jalik mashinalarining yillik ish rejimini hisoblash uslubini o'rganish.

Topshiriq:

1. Mashina rusumi hamda mashinalardan foydalanish ko'rsatkichlari asosida quyida keltirilgan shakl bo'yicha har bir talaba topshiriq oladi.

1-shakl. Mashinalardan foydalanish ko'rsatkichlari.

№	Mashina nomlanishi	Mashina rusumi	Mashinalardan vaqt bo'yicha foydalanish ko'rsatkichlari				
			Ichki smenadan foydalanish	Mashina-soatdan motto-soatga o'tish	Ko'chirib o'tkazishlar soni	Ko'chirib o'tkazishning o'rtacha vaqti	Ta'mirlash koeffitsiyenti
1.	Traktorlar	VT-150D	1,20	0,63	6	0,3	0,0220
2.		K-701	1,11	0,63	8	0,5	0,0220
3.		AXION-850	1,10	0,75	4	0,3	0,0220
4.		Arion 630	1,15	0,78	5	0,4	0,0220
5.		T-4A	1,20	0,63	6	0,3	0,0220
6.		TTZ-80.11	1,11	0,63	8	0,5	0,0220
7.		MTZ-80	1,10	0,75	4	0,3	0,0220
8.		TS-130	1,15	0,78	5	0,4	0,0220

2. Qishloq xo'jalik mashinalarining yillik ish rejimini hisoblansin.

Ishni bajarish tartibi:

Qishloq xo'jalik mashinalarining ikki turdagi ekspluatatsion ish tartibi belgilanadi: vaqt bo'yicha va kuch yuklamasi intensivligi bo'yicha. Vaqt bo'yicha ish tartibi smenadagi foydali ish vaqti bilan belgilanib, smena, sutka va yildagi majburiy tanaffuslarni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Mashina smena vaqti foydali ishga, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, mashinani ishga tayyorlash hamda tashkiliy jarayonlarga ketgan vaqtga bo'linadi.

Mashinalarning yillik ish tartibi 5 yoki 6 ish kunlik haftada mashina soatlarda quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$T_y = D_{ish} \cdot t_{sm} \cdot K_{sm},$$

yoki moto-soatlarda

$$W_y = T_y \cdot K_p, \tag{1}$$

bu yerda D_{ish} – yildagi ish kunlari soni;

t_{sm} – ish smenasining davomiyligi, soat ($t_{sm}=8,2$ soat yoki $t_{sm}=7,0$ soat);

K_{sm} – mashinalarning smena koeffitsiyenti (1-shakl);

K_p – mashina-soatdan motto-soatga o'tish koeffitsiyenti (3-ilova).

Mos ravishda yildagi ish kunlari soni

$$D_{ish} = d_k - (d_{db} + d_{ob.x} + d_t + d_{tuz} + d_{k.u}), \tag{2}$$

bu yerda d_k – bir yildagi kalendar kunlar soni, $d_k=365$ kun;
 $d_{d.b}$ – bayram va dam olish kunlari hisobiga mashinaning ishlamagan kunlari soni;

$d_{ob.x}$ – ob-havo noqulay kelishi munosabati bilan mashinalarning ishlamagan kunlari soni;

d_t - ko'zda tutilmagan tashkiliy sabablarga ko'ra mashinalarning to'xtab turgan kunlari soni;

d_{tuz} - ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish sababli mashinalarning bekor turish kunlari soni;

$d_{ob.x}$ - mashinalarni boshqa ish joyiga ko'chirib o'tkazish vaqtida ishlamagan kunlar soni.

Yozgi vaqtda (iyun, iyul, avgust) mashinalar ishlashini o'zgaruvchan jadval asosida tashkil etilganda bayram va dam olishlar sababli ishlamagan kunlar soni quyidagicha aniqlanadi:

$$d_{db} = d_{db}^l - d_{db}^y \quad (3)$$

bu yerda $d_{d.b}^l$ – respublikada o'rnatilgan bayram va dam olish kunlarining soni;

$d_{d.b}^u$ – masihiislarni o'zgaruvchan jadval asosida ishlaganda dam olish va bayram kunlari soni.

Ob-havo noqulay kelishi munosabati bilan mashinalarning ishlamagan kunlari soni

$$d_{ob.x} = d'_{ob.x} \left(1 - \frac{d_{db}}{d_k} \right), \quad (4)$$

bu yerda $d'_{ob.x}$ - ob havo noqulay kelgan kunlar soni.

Ko'zda tutilmagan tashkiliy sabablarga ko'ra mashinalarning to'xtab turgan kunlari soni

$$d_t = 0,03(d_k - d_{db}) \quad (5)$$

Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish sababli mashinalarning bekor turish kunlari soni

$$d_{tuz} = \frac{[d_k - (d_{bd} + d_{ob.x} + d_t + d_{k.u})] \cdot t_{sm} \cdot K_{sm} \cdot P'_t}{1 + t_{sm} \cdot K_{sm} \cdot P'_t}, \quad (6)$$

bu yerda d_{ku} – mashinalarni bir ish joyidan ikkinchi ish joyiga ko'chirib o'tkazish vaqtida ishlamagan kunlari soni;

P'_t – moto-soatdan mash-soatga o'tkazish koeffitsiyenti,

$$P'_t = P_t \cdot K_{is}, \quad (7)$$

bu yerda P_t – ta'mirlash koeffitsiyenti (1-ilova);

K_{is} – ichki smenadan foydalanish koeffitsiyenti (1-shakl).

Mashinalarni boshqa ish joyiga ko'chirib o'tkazish vaqtida ishlamagan kunlar quyidagicha aniqlanadi:

$$T_{k.o'} = n_{k.o'} \cdot t_{k.o'}, \text{ soat} \quad (8)$$

bu yerda: $n_{k.o'}$ – ko'chirib o'tkazishlar soni (1-shakl);

$t_{k.o'}$ – ko'chirib o'tkazish o'rtacha vaqti (1 shakl).

Ko'chirib o'tkazishlar ikki smenada tashkil etilganda ishlamagan kunlar quyidagicha aniqlanadi:

$$d_{ku} = \frac{T_{ku}}{2 \cdot t_{sm}} \quad (9)$$

ISH YUZASIDAN HISOBOT

- 1. Hisob natijalarini bo'yicha hulosa yozish.**